

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QISH
SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARINI
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

**Xo'jamatova Dildoraxon Baxromjon qizi,
Xalqaro Nordik universiteti 2-bosqich magistranti**

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish usullarini takomillashtirish yo'llarini aniqlash va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bugungi kunda o'qish savodxonligi nafaqat ta'lim sifati, balki jamiyatning intellektual taraqqiyoti bilan ham bevosita bog'liq. Tadqiqotda o'quvchilarning savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qiluvchi ilg'or pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va integratsiyalashgan usullar tahlil qilindi. Tadqiqotda tajriba-sinov ishlari amalga oshirilib, turli ta'lim metodlarining samaradorligi va takomillashtirish yo'llari o'rganildi. Olingan natijalar asosida, boshlang'ich sinflarda qo'llash mumkin bo'lgan samarali pedagogik strategiyalar ishlab chiqildi va amaliy tavsiyalar shakllantirildi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, o'qituvchilarga metodik ko'rsatmalar berish va kelgusida chuqurroq o'rganish uchun ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'qish savodxonligi, xotira, takomillashtirish, ta'lim samaradorligi

**ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОВ РАЗВИТИЯ
ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ
КЛАССОВ**

**Ходжаматова Дилдорахон Бахромджон кызы,
магистрант 2-го курса Международного Северного университета**

АННОТАЦИЯ

Целью данного исследования является выявление путей совершенствования и повышения эффективности методов развития грамотности чтения у учащихся в начальных школах. Сегодня грамотность чтения связана не только с качеством образования, но и с интеллектуальным развитием общества. В исследовании анализируются передовые педагогические технологии, инновационные подходы и комплексные методы, помогающие повысить уровень грамотности учащихся. Исследование включало экспериментальную работу по изучению эффективности различных методов обучения и путей их совершенствования. На основании полученных результатов разработаны эффективные педагогические стратегии, которые можно использовать в начальных классах, и сформулированы практические рекомендации. Результаты исследования послужат дальнейшему совершенствованию системы начального образования, окажут методическую помощь учителям и создадут научную базу для дальнейшего углубленного изучения.

Ключевые слова: начальная школа, грамотность чтения, память, улучшение, эффективность обучения.

WAYS TO IMPROVE METHODS OF DEVELOPING READING LITERACY IN PRIMARY STUDENTS

Kho‘jamatova Dildorahon Bakhromjon kizi,

2nd year master’s student at the International Nordic University

E-mail: xojamatovadildoraxon@gmail.com

ABSTRACT

The purpose of this study is to identify ways to improve and increase the effectiveness of methods for developing reading literacy in students in primary schools. Today, reading literacy is associated not only with the quality of education, but also with the intellectual development of society. The study

analyzes advanced pedagogical technologies, innovative approaches and complex methods that help improve the level of literacy of students. The study included experimental work to study the effectiveness of various teaching methods and ways to improve them. Based on the results obtained, effective pedagogical strategies have been developed that can be used in elementary grades, and practical recommendations have been formulated. The results of the study will serve to further improve the primary education system, provide methodological assistance to teachers and create a scientific basis for further in-depth study.

Key words: primary school, reading literacy, memory, improvement, learning efficiency.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli axborot asrida savodxonlik nafaqat shaxsiy taraqqiyotning, balki butun jamiyatning intellektual rivojlanish darajasining mezoni sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi zamonaviy ta'lim tizimining poydevoriy vazifasi bo'lib, o'quvchining keyingi bosqichlardagi muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning savodxonligini shakllantirishda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda ilg'or pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va integratsiyalashgan metodlarning samarali kombinatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski, amaliyotda ko'plab o'quvchilar matnni mexanik o'qiydi, ammo uni tushunish, asosiy g'oyani ajratish va fikr bildirishda qiynaladi. Bunday holatni bartaraf etish uchun o'qituvchidan yangicha yondashuv, kreativlik va faol o'quv muhiti yaratish talab qilinadi.


METADOLOGIYA

Ushbu tadqiqot Toshkent shahar Shayxontohur tumani 40 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 2-sinf o'quvchilari ishtirokida 2025-yil yanvar - mart oylarida amalga oshirildi. Tadqiqotda 25 nafar o'quvchi, 1 nafar sinf rahbari qatnashdi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan ushbu tadqiqot tajriba-sinov shaklida olib borildi. Maqsad - o'quvchilarda o'qish savodxonligini

rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlarni amaliyotga tadbiq etish, ularning samaradorligini baholash va takomillashtirish yo‘llarini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqot quyidagi uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Boshlang‘ich diagnostika bosqichi: O‘quvchilarning mavjud savodxonlik darajasi aniqlanib, asosiy muammolar aniqlashtirildi. Matnni tushunish, qayta hikoya qilish, savolga javob berish, so‘z boyligi va ifodali o‘qish malakalari maxsus testlar va kuzatuvlar asosida baholandi.

2. Tajribaviy-amaliy bosqich: Ushbu bosqichda o‘qish darslarida quyidagi metodlar qo‘llanildi: “Qayiqcha” metodi: O‘quvchilar matndan asosiy fikr, qahramon va voqeani “qayiq” shaklidagi qog‘ozlarga yozadilar. Bu qayiqlar “bilim daryosi” devoriga yopishtirilib, har dars yakunida tahlil qilinadi. Eng faol qatnashganlar yulduzcha bilan rag‘batlantiriladi. “Savol-daraxti” yondashuvi: O‘quvchilar matn asosida daraxt shaklida savollar yaratadi. Har bir bo‘lim ma’lum bir maqsadga xizmat qiladi: ildiz – sabab, poya – voqea, shox – detallar, barg – xulosa. Bu metod fikrlashni rivojlantirishga xizmat qildi.



XULOSA

Tadqiqot jarayonida 2-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishda samarali metodlarni qo‘llash o‘quvchilarda mustaqil fikrlash,

tushunganini ifodalash va kitobga mehr uygʻotishda muhim vosita boʻlishi aniqlandi. Takomillashgan “Qayiqcha” metodi orqali oʻquvchilar matnning asosiy mazmunini qisqa va aniq bayon eta oldilar. “Savol-daraxti” yondashuvi esa ularning tahliliy va tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qildi. Shuningdek, “Kitobxonlik — buyuk kelajagimiz kafolati” marafoni orqali oʻquvchilarda oʻqishga boʻlgan ijobiy munosabat mustahkamlandi, mustaqil kitob oʻqish odati shakllandi, nutqiy faollik kuchaydi va xotira sezilarli darajada rivojlandi. Oʻquvchilarda savodxonlikni rivojlantirish uchun faqat anʼanaviy metodlar bilan cheklanmasdan, ularni interfaol va ijodiy metodlar bilan boyitish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Buzan, T. (2010). The Mind Map Book. BBC Active. — Aql xaritasi asosida vizual fikrlash usulining nazariy asoslari.
2. Suxomlinskiy, V.A. (1980). Yurakdan yurakka yoʻl. Toshkent: Oʻqituvchi. — Oʻquvchining fikrlash va oʻqishga munosabatini tarbiyalashga oid.
3. Gʻafurov, N. (2018). Boshlangʻich sinflarda savod oʻrgatish metodikasi. Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi. — Boshlangʻich taʼlimda savodxonlik metodikasining amaliy asoslari.
4. Zunnunova, D. (2022). Oʻqish savodxonligi va tafakkur rivoji. Toshkent: TDPU. — Oʻqish darslarida tafakkurni rivojlantirish metodikasi.
5. Sigalingging, R., Nababan, H., Putra, A., & Nababan, M. (2023). Enhancing Learning Motivation in Elementary Schools. International Journal of Education and Research. — Oʻquvchilar motivatsiyasini oshirishga oid xalqaro izlanish.
6. Vodovozov, V.I., & Bunakov, P.F. (1985). Nachalnoe obuchenie chteniyu i razvitie rechi. Moskva. — Oʻqish va nutqni rivojlantirish usullari.

7. Usmonov, Q. (2020). Boshlang'ich ta'lim psixologiyasi. Samarqand: Imkon-Nashr. — Yosh xususiyatlari va psixologik yondashuvlar.